

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

XO‘JANIYAZOVA SHOXNOZA SATIMBOYEVNA

ALISHER NAVOIYNING MANOQIB ASARLARI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Хо‘janiyazova Shoxnoza Satimboyevna Alisher Navoiyning manolib asarlari leksikasi.....	3
Хо‘janiyazova Shoxnoza Satimboyevna The lexis of Alisher Navoi’s manolib	25
Хужаниязова Шохноза Сатимбаевна Лексика манобов Алишера Навои.....	47
Эълон қилинган ишлар рўйхати List of published works Список опубликованных работ.....	53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMiy
KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

XO‘JANIYAZOVA SHOXNOZA SATIMBOYEVNA

ALISHER NAVOIYNING MANOQIB ASARLARI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1266-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.navoiy-uni.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dadaboyev Hamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxamedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

O‘razboyev Abdulla Durdiboyevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil “__” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.navoiy-uni.uz); e-email: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent shahri Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2022- yil “__” _____ kuni tarqatildi.

(2022-yil “__” _____ dagi raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.S.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

N.M.Mahmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ajdodlardan qolgan boy merosning kelib chiqish tarixini tadqiq qilish, ularni sinxron va diaxron aspektlarda o'rganish, o'sha davrlarga oid lisoniy birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, qo'lyozma manbalarni avlodlarga asl holda yetkazish asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan tahlil etish, turli davrlarda bitilgan yodgorliklar tilini qiyoslash, ularning integral va defferensial xususiyatlarini aniqlash jahon tilshunosligida muhim sanaladi.

Dunyo tilshunosligida buyuk ajdodlarning boy ilmiy merosini sinchiklab o'rganish, ular tomonidan yaratilgan olamshumul xarakterdagi asarlarning til xususiyatlari, chunonchi, so'z boyligini atroflicha tahlil qilish, ona tili leksikonini boyitish va takomillashtirishdagi rolini ko'rsatish, ona tili sofligini saqlash, uni ichki manbalar hisobiga kengayish jarayonlarini tahlilga tortish, ayni chog'da, har qanday til so'z boyligining taraqqiy etishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning o'rnini tahlil qilish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, o'zbek adabiy tilining tom ma'nodagi asoschisi Alisher Navoiy qalamiga oid nasr hamda nazmda bitilgan badiiy, tarixiy, ilmiy asarlarning til xususiyatlari dunyo navoiyshunoslari diqqatini bir necha asrlar mobaynida o'ziga jalb etib kelmoqda. Zero, ulug' mutafakirning o'zbek adabiy tili qaror topishidagi beqiyos o'rni, birinchidan, ona tilining shakllanish bosqichlarini belgilashda yordam bersa, ikkinchidan, so'z boyligining turfaligi va ifoda imkoniyatlarining rivojlanishiga ulkan ulush qo'shgan ajdodimizning rolini e'tirof etishda xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda moziyda bitilgan ilmiy, badiiy, tarixiy manbalarni ham diaxron, ham sinxron nuqtayi nazardan tadqiq etish, chunonchi, ularda qo'llangan rang-barang so'z boyligini statistik, tarixiy-etimologik, funksional-semantik hamda semantik-stilistik aspektlarda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "so'nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uning o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda"¹. Binobarin, "bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlashi, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"². Shu o'rinda Alisher Navoiy manolib asarlari leksikasining atroflicha tadqiqi XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining leksik xususiyatlari, undagi lug'aviy birliklarning ma'noviy imkoniyatlarini tahlil etishda, asarlarning ilmiy-amaliy qiymatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 19 октябрдаги “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги ПҚ-4865-сонли Қарори.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқени тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. Тошкент шаҳри, 2019 йил 21 октябрь.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Alisher Navoiy tomonidan ta’lif etilgan 30 dan ortiq asarlarda qo‘llangan leksik boylik bilan oshno bo‘lish, ko‘pdan-ko‘p so‘z va istilohlarning ma’no-mazmunini anglash adib hayotiylik chog‘idayoq boshlangan edi. Xususan, adib asarlarida ishlatilgan turkcha-mo‘g‘ulcha qatlamni izohlashga yo‘naltirilgan Toli Imoniy Hiraviyning “Badoyi’ ul-lug‘at”³, Mirzo Mehdixonning “Sanglox”⁴, muallifi noma’lum “Abushqa”⁵, Fazlullaxonning “Lug‘at-i turkiy”⁶, Fath Alixon Kojarning “Lug‘at-i atrokiya”⁷ kabi eski o‘zbekcha-forscha-tojikcha, eski o‘zbekcha-turkcha lug‘atlarning tuzilgani ilm ahliga yaxshi ma’lum. XX asrning 30-yillarida Alisher Navoiy asarlari til xususiyatlarini tizimli o‘rganish masalasi kun tartibidan o‘rin ola boshladi. Natijada, muayyan tadqiqotlar yuzaga keldi. Chunonchi, adib asarlarining O‘rta Osiyo turkiy adabiy tilning shakllanishidagi o‘rni, adib asarlarining qadimgi obidalarga munosabati, mutafakkirning o‘zbek adabiy tili shakllanishidagi o‘rni, u kishi tomonidan yaratilgan asarlarining fonetik, morfologik, leksik-semantik, statistik, lingvopoetik va sintaktik jihatdan tahlili nafaqat A.Borovkov, A.Rustamov, E.Fozilov, X.Doniyorov, E.Umarov, O.Usmonov, B.Bafoyev, U.Sanaqulov, S.Ashirboyev, H.Dadaboyev, Q.Sodiqov, A.Karimov, I.Nosirov, Z.Hamidov, M.Rahmatullayeva, Sh.Egamova, M.Abdulxayrov, D.Abduvaliyeva,

³ Баровков А.К. “Бада’и’ ал-лугат”. Словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – М.: ИВЛ, 1961.

⁴ Умаров Э. Словари староузбекского языка и вопросы фонетики. Санглах. – Ташкент: Фан, 1994.

⁵ Шу муаллиф. Словари староузбекского языка и вопросы фонетики. Абушка. – Ташкент: Фан, 1994.

⁶ Шу муаллиф. Словари староузбекского языка и вопросы фонетики. Лугат-и турки. – Ташкент: Фан, 1994.

⁷ Шу муаллиф. Словари староузбекского языка и вопросы фонетики. Лугат-и атрокия. – Ташкент: Фан, 1994.

M.Tojiboyeva, N.Rustamova singari o‘zbek⁸, balki A.Samoylovich, A.Shcherbak, J.Eckmann, S.Özönder kabi xorij navoiyshunoslari tomonidan ham amalga oshirildi⁹. Natijada XIV-XV asrlar eski o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos xususiyatlari, chunonchi, Navoiyning so‘z qo‘llash mahoratiga ma‘lum darajada oydinlik kiritildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiyning manoqib asarlari so‘z boyligini statistik, tarixiy-etimologik, leksik-semantik va funksional-semantik jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

manoqiblar leksikasining statistik tahlilini amalga oshirish;
asarlar leksikasini qatlamlar nuqtayi nazaridan guruhlashtirish, o‘z va o‘zlashgan so‘zlarning manoqiblar tilida qo‘llanish darajasini aniqlash;

⁸ Боровков А.К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка. Алишер Навои. – М. – Л: Изд-во АН СССР, 1946; Он же. “Бада’и’ ал-лугат”. Словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – М.: ИВЛ, 1961; Рустамов А. Некоторые грамматические особенности языка “Махбул ул-кулуб” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1959; Он же. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1966; Шу муаллиф. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Фафур Гулом, 1979; Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент: Фан, 1965; Шу муаллиф. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий. – Тошкент: Фан, 1969; Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат, 1972; Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов “Хазойин-ул-маони” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л.: 1968; Усмонов А. “Муҳакамат ал-лугатайн” Алишера Навои, – Ташкент, 1948; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968; Шу муаллиф. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Санакулов У. Исследование памятника XV века “Муҳакамат ал-лугатайн” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Аширбоев С. Алишер Навоий насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари. Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990; Дадабаев Х. Военная лексика в строузбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Шу муаллиф. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2008; Шу муаллиф. Alisher Navoiyning kinoya she‘riy san‘atini qo‘llash mahorati. Alisher Navoiy va XXI asr. – Toshkent, 2021. – В. 149-155; Содиков Қ. “Муҳакамату-л-лугатайн” ни ўқиб ўрганиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011; Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы “Фархад и Ширин” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1974; Насыров И. Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1980; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982; Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в лирике Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965; Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексик қатлам. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Абдулхайров М. Навоий асарларида сўз ва иборалар. – Тошкент: Tafakkur bo‘stoni, 2009; Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 2016; Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон” идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Рустамова Н. Навоий асарларидаги арабча сўзларнинг морфологик белгилари. Адабиёт кўзгуси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1998. № 4 va h.k.

⁹ Самойлович А.Н. К истории литературного среднеазиатского-тюркского языка. Мир-Али-Шир – Л: 1928; Щербак. А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. – Л: Изд-во АН СССР, 1962; Eckmann J. Kūçük Çağatay Grameri. Harezmi, Kipçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar. Yayına hazırlayan Osman Fikri Sertkaya. – Ankara, 1996. – S. 109-132; Özönder S. Alî Şîr Nevâyî. Muhakemetül-luğateyn. İki Dilin Muhakemesi. – Ankara, 1996.

manoqiblar so‘z boyligining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini belgilash;

asarlar leksik tarkibini funksional-semantik jihatdan tahlil qilish;

manolib asarlarida qo‘llangan leksik boylikning mavzuviy guruhlarini belgilash;

manoliblar so‘z boyligida sodir bo‘lgan leksik-semantik hodisalar misolida eski o‘zbek adabiy tili leksikasining imkoniyatlari va muallifning so‘z qo‘llash mahoratini ko‘rsatish;

asarlar leksikasida sinonimiya, polisemiya, antonimiya, omonimiya singari leksik-semantik hodisalar hamda metafora, sinekdoxa, parafraza, evfemizm kabi stilistik usullarni aniqlash;

manoliblar so‘z boyligida qo‘llangan, biroq adibning boshqa asarlarida qayd etilmagan leksik birliklarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” (XM), “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” (HSHA) va “Holoti Pahlavon Muhammad” (HPM) asarlarining O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 11411, 12498 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan hamda 2013-yillarda G‘afur G‘ulom nashriyoti tomonidan e‘lon qilingan nashrlari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti Alisher Navoiyning manolib asarlari leksikasini statistik, tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik aspektlarda tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, tasniflash, retrospektiv, statistik va komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy manolib asarlari so‘z boyligidagi o‘z va o‘zlashgan qatlamlar nisbati belgilanib, turkiy so‘zlarning arabcha va forscha-tojikcha muqobillari aniqlangan;

manoliblar leksikasi tarkibida eski o‘zbek adabiy tilining o‘zlashmalar ishtirokida bir qator arabcha+forscha *amnábád*, *xijálatzáda*, *maxdumzáda*, arabcha+forscha+turkiycha *nazarbázliý*, *naqšbandliq*, *ášiqpešaliq* kabi qorishiq so‘zlarning yasalishi dalillangan;

Navoiyning boshqa asarlarida qo‘llanmagan, biroq manoliblar so‘z boyligida o‘z ifodasini topgan leksik birliklar borligi isbotlanib, “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida *asqál*, *mustaššad*, *sáhibmátam*, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” da *lavanvašliq*, *sáhibazá*, “Holoti Pahlavon Muhammad” da *dalk*, *vušáq* kabi ko‘plab so‘zlarning leksik birligi aniqlangan;

manoliblar leksikasi statistik, tarixiy-etimologik, leksik-semantik va funksional-semantik jihatdan yoritilib, ijtimoiy-siyosiy, diniy, harbiy, ta‘lim-tarbiya, qavm-qarindoshlikka oid leksik birliklarning qo‘llanish doirasi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarixiy, etimologik, izohli va o‘quv lug‘atlar tuzishda tadqiqot materiallaridan keng darajada foydalanish mumkin;

o‘zbek tili leksikasini sun’iy intellekt uchun matematik modellashtirishda formal leksik material bo‘ladi;

o‘zbek tili milliy korpusi uchun leksik material sifatida xizmat qiladi;

“O‘zbek tili tarixi”, “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanlarini o‘qitishda darslik, o‘quv qo‘llanma va o‘quv uslubiy qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin;

dissertatsiyaning ilmiy xulosalaridan, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar va umumta’lim maktablarida leksemalarga xos semantik, chunonchi, ma’no torayishi, ma’no kengayishi, ma’no ko‘chishi kabi hodisalarni belgilashda sinonimiya, polisemiya, antonimiya, omonimiya jarayonlarini tahlil qilishda, “O‘zbek tili tarixi”, “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanlari bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminarlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy ma’lumotlarning ishonchli nazariy manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan tahlillar statistik, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, komponent tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning turkiy tillar, xususan, o‘zbek adabiy tilining shakllanish hamda taraqqiyot bosqichlari xususida mavjud fikr va mulohazalarni muayyan darajada oydinlashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undan o‘zbek tilining tarixiy leksikologiyasi va tarixiy grammatikasiga oid darslik va qo‘llanmalar yaratishda, izohli, etimologik, ensiklopedik lug‘atlar tuzishda, ixtisoslik fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy manoqib asarlari leksikasi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari leksikasining statistik, tarixiy-etimologik, semantik va funksional-semantik tahlili bilan bog‘liq ilmiy-nazariy xulosalardan OT-F1-71 raqamli “Ilk va o‘rta asrlar Markaziy Osiyo mintaqasida etnolingvistik vaziyat” (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 5-apreldagi 04/1-614-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi turkiy tilda bitilgan manoqib asarlar leksikasi ijtimoiy voqelik haqida ma’lumot beribgina qolmasdan, til va madaniyat munosabatlari, xalq dunyoqarashi, urf-odat, an’analar, leksik-semantik jarayonlar, semantik taraqqiyotni o‘zida ifoda etishi masalalarini yoritib berishga qaratilgan;

Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasining statistik, tarixiy-etimologik, leksik-semantik va funksional-semantik jihatdan tasniflari, ijtimoiy-siyosiy, diniy, harbiy, ta’lim-tarbiya, qavm-qarindosh, kasb-hunarga oid leksik birliklarning qo‘llanish doirasi, asar leksik qatlamining semantik xususiyatlari va asar matnida qo‘llanilgan leksik birliklarning genezisiga doir ilmiy xulosalardan “UzNutq Sintezator” nomli kompyuter dasturi ma’lumotlar bazasini tayyorlashda

BV-Atex-2018 (143) raqamli “Ko‘zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o‘qish va yozish imkonini beruvchi o‘zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta‘minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish” (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 21-fevraldagi 04/1-317-son ma‘lumotnomasi). Natijada dasturning leksik bazasini yaratishda o‘zbek tili qurilishiga sinxron-formal, sistem-struktur, substansial tahlil va tasnif usullarini sintezlashtirgan holda mustaqillik davri ilmiy qarashlari asosida yondashuv, yetakchi olimlar ilmiy-nazariy qarashlarining zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti uchun asosiy nazariy manba bo‘lganlik darajasini asoslashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasida aks etgan sharqona madaniyat, boy adabiy, ma‘naviy meros muayyan davrning til, tarix, madaniyat bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda yozma yodgorliklarga murojaat etish muhim qadamlardan biri ekanligiga doir ilmiy-tarixiy ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Hamma uchun” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2022-yil 11-fevraldagi 06-31-353-son ma‘lumotnomasi). Natijada Navoiy manoqib asarlarining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ommaga yetkazishga xizmat qilgan, ko‘rsatuvning ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Alisher Navoiy manoqib asarlari leksikasining statistik va tarixiy-etimologik tahlili**” deb nomlanib, unda manoqiblar leksikasidagi o‘z va o‘zlashgan qatlamga oid birliklar statistik tahlil qilingan.

Manoqib asarlarining so'z boyligi




Manoqiblarda jami (takrorsiz) 3862 ta leksema qo‘llangan. Shundan 1301 tasi turkiy, 1736 tasi arabcha, 463 tasi forscha-tojikcha 25 tasi arabcha-forscha, 24 tasi forscha-arabcha, 2 tasi sanskritcha, 3 tasi mo‘g‘ulcha. “Xamsat ul-mutahayyirin” da (takrorlarsiz) 2027 ta so‘zning 609 tasi turkiy, 922 tasi arabcha, 227 tasi forscha-tojikcha, 18 tasi arabcha-forscha, 12 tasi forscha-arabcha, 2 tasi mo‘gulcha, 1 tasi sanskritcha; “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da 901 ta so‘zdan, 360 tasi turkiy, 394 tasi arabcha, 103 tasi forscha-tojikcha, 3 tasi arabcha-forscha, 5 tasi forscha-arabcha, 1 tasi mo‘gulcha, 1 tasi sanskritcha; “Holoti Pahlavon Muhammad”da 934 ta so‘zning 332 tasi turkiy, 420 tasi arabcha, 133 tasi forscha-tojikcha, 4 tasi arabcha-forscha, 7 tasi forscha-arabcha ekanligi aniqlandi.

Manoqib asarlaridagi leksik qatlamning etimologik jihatdan aks etishi



“Xamsat ul-mutahayyirin”da qo‘llangan narsa-buyum nomini ifodalovchi so‘zlar 1267 (63%) ta, shundan 186 tasi atoqli ot, 1085 tasi turdosh ot. 186 ta atoqli otning 99 tasi antropomim, 1 tasi astroponim, 29 tasi toponim, 1 tasi etnonim, 54 tasi asar va muqaddas kitob nomlari, 2 ta Qur’oni Karimda keltirilgan sura nomini tashkil etadi. Ish-harakat bildiruvchi 336 (17%) ta so‘zdan 122 tasi sodda, 214 tasi qo‘shma, rang-tus anglatuvchi so‘zlar 235 (12%) ta, ishora bildiruvchi so‘zlar 34 (2%) ta, son-miqdorni ifodalovchi so‘zlar 35 (2%) ta, holat belgisini ifodalovchi so‘zlar 69 (2,4%) ta, yordamchi so‘zlar 29 (1,4%) ta, alohida so‘z

turkumlar 22 (1%) tani tashkil qiladi. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da narsa-buyum nomini bildiruvchi soʻzlar 497 (55%) ta, shundan 39 tasi atoqli ot, 458 tasi turdosh ot. 39 ta atoqli otdan 29 tasi antroponim, 6 tasi toponim, 3 tasi asar nomlari, 1 tasi Qur’oni Karimda keltirilgan sura nomi. Ish-harakat anglatuvchi 169 (19%) soʻzdan 69 tasi sodda, 100 tasi qoʻshma, rang-tus bildiruvchi soʻzlar 112 (12%) ta, ishora bildiruvchi soʻzlar 24 (3%) ta, son-miqdorni anglatuvchi soʻzlar 12 (1,3%) ta, holat belgisini ifodalovchi soʻzlar 39 (4,3) ta, yordamchi soʻzlar 32 (4%) ta, alohida soʻz turkumlar 17 (2%) ta. “Holoti Pahlavon Muhammad”da narsa-buyum nomini anglatuvchi soʻzlar 501 (54%) ta, shundan 38 tasi atoqli ot, 463 tasi turdosh ot. 38 ta atoqli otdan 32 tasi antroponim, 5 tasi toponim, 1 tasi Qur’oni Karimdan keltirilgan sura nomi. Ish-harakatni bildiruvchi soʻzlar 165 (18%) ta, shundan 85 tasi sodda, 80 tasi qoʻshma, rang-tus ifodalovchi soʻzlar 130 (14%) ta, ishora bildiruvchi soʻzlar 37 (4%) ta, son-miqdorni bildiruvchi soʻzlar 20 (2,1%) ta, holat belgisini anglatuvchi soʻzlar 44 (5%) ta, yordamchi soʻzlar 26 (2,4%) ta, alohida soʻz turkumiga doir soʻzlar 11 (1,1%) ta. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, manqibalarda Navoiyning boshqa hech bir asarida uchramaydigan leksemalar 142 ta, chunonchi, XMda 70 ta, xususan *asqál*^{10*} “oʻgʻiq yuklar, narsalar”, *mustaššad* “talab etilgan guvoh, shohid” *sáhibmátam*, HSHA da 27 ta: *lavanvašliq* “loqaydlik, xushyoqmaslik, dangasalik”, *sáhibazá* “aza egasi, ta’ziyali”, HPMda 45 ta: *dalk* “uqalash, massaj qilish; hammomda xodimlik qilish”, *vušáq* “yosh xizmatkor” va h.k. Shuningdek, 142 ta leksemadan ANATILda 127, ANALda 32, NAILda 9, NALda 52, NTLda 23 ta mavjudligi aniqlandi.



Alisher Navoiyning manqib asarlarida oʻzbek tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski oʻzbek adabiy tili davridagi soʻz boyligi muayyan darajada aks etgan. Shu nuqtayi nazardan, manqiblarda qoʻllangan turkiy tilga xos leksik qatlam quyidagi ikki guruhga boʻlingan holda tahlilga tortildi:

1) qadimgi turkiy tilga oid soʻzlarning qoʻllanishi 2) maʼno jihatdan oʻzgarishga uchragan leksemalar.

^{10*} Ashyoviy misollar oʻzbek turkiyshunoslari qoʻllayotgan transkripsiyada berildi.

Alisher Navoiy *manoqiblarida qadimgi turkiy tilga oid soʻzlarning qoʻllanishi*. Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urugʻ va qabilalarning umumiy tili sifatida VII-X asrlarni oʻz ichiga oladi. Qadimgi turkiy til oʻzining kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy ravishda bogʻlangan¹¹. Turkiy xalqlarning moddiy-madaniy hayoti va yozuv tarixi haqidagi tarixiy va arxeologik maʼlumotlar turkiy tilda soʻzlovchi urugʻ hamda qabilalarning eramizdan ilgari mavjud boʻlganligini, jamiyat boʻlib tashkil topganligi va birgalikda turmush kechirganligini koʻrsatadi¹².

Bar= leksemasi qadimgi turkiy tilda 1) joʻnamoq; 2) koʻchma maʼnoda: oʻlmoq, vafot etmoq (DTS, 84), hozirgi qarindosh turkiy tilda 1) bormoq; 2) yetaklamoq; 3) yurmoq; 4) kelmoq; 5) oʻtmoq, koʻchmoq; 6) yaramoq; 7) tarqatmoq; 8) koʻpaymoq, bolalamoq (hayvonlar va oʻsimliklar); 9) harakat qilmoq; 10) tinmoq 11) biror joyda yoki holatda boʻlmoq, turmoq (ESTYA, I, 64-65) maʼnolarida qoʻllangan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida “soʻzlovchining turgan joyidan uzoqlashmoq, nari ketmoq; biror joy (manzil) tomon harakat qilmoq, yoʻl olmoq” sememasida (OʻTIL, I, 317-318), ANATILda besh: 1) bormoq, qadam ranjida qilmoq; 2) ketmoq, joʻnamoq, tark etmoq; 3) uyquga ketmoq, uxlamoq; 4) holsizlanmoq, oʻzidan ketmoq, hushsizlanmoq; 5) oʻlmoq, vafot etmoq, qazo qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq maʼnolarida ishlatilgani qayd etilgan (I, 313). *Bar=* leksemasi *manoqiblarda* quyidagi maʼnolarda aks etgan:

1) bormoq, qadam ranjida qilmoq: *Bu faqir alarni xilvatlari* (HSHA, 12b7) *eʃigigā bardim*;

2) ketmoq, joʻnamoq, tark etmoq: *Azizim* (25a4) *Šayxim Suhayliy yolda yoluqtī, qayan baraduryanīm* (XM, 25a5) *bilgäč, hamrāh boldi*.

3) oʻlmoq, vafot etmoq, qazo qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq: *Alarni Safiuddin Muhammad atliy* (XM, 25a2) *farzandlari Teŋri rahmatīya bardī*;

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *barmaq* leksemasining maʼno doirasi kengayib, oʻn toʻrt semada ishlatilmoqda (OʻTIL, I, 317). *Bar=* soʻzining XMda qayd etilgan “vafot etmoq, qazo qilmoq” maʼnosi hozirgi oʻzbek adabiy tilida koʻzga tashlanmaydi.

Maʼno jihatdan oʻzgarishga uchragan leksemalar.

Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda *ayt=* leksemasi *aj*-shaklida boʻlib 1) gapirmoq, hikoya qilmoq, sharhlamoq; 2) tilga olmoq; 3) xabar bermoq, boshqarmoq (DTS, 25) semalarida ishlatilgan. ANATILda 1) aytmoq, gapirmoq, soʻzlamoq; 2) yozmoq; bitmoq; 3) oʻqimoq; 4) kuylamoq, xonish qilmoq (I, 69) maʼnolarida qoʻllangan ushbu leksema *manoqiblarda* maʼno kengayishiga uchrab, quyidagi misollarda 4 ta sememani ifodalagan:

1) soʻzlamoq, gapirmoq, demoq. *Faqir ayttimkim: Čun siz barča bir jānib boldungiz* (XM, 16b9) *men yalyuz*.

2) yozmoq, bayon etmoq: (67a24) *Bu faqir ham bu kitābni avvalida alar madhidā aytqandīn* (XM, 67b1) *bir nečā bayt bilā ixtisār qilinur*.

¹¹ Мухторов А. Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 26.

¹² Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, – Б. 53.

3) bag'ishlamoq: *Faqirniñ* (40a3) "*Tuhfat ul-afkár*" qasidamdinkim, alarniñ atiya **aytilibtur** va yuqari mazkur boldi (XM, 40a4).

4) bitmoq: *Va še'r va muammá babida ilmiy* (4a4) va *amaliysida Pahlaván sáhib-i vuquf va* (4a5) *jald erdi, ul nav'kim, zamán šuarásiniñ yuzidin birigä anča* (5a6) *šuur va vuquf yoqtur va aksar nazm ahli har nav' še'r* **aytsalar** erdi (HPM, 6a7).

Manoqiblar tarkibidagi arabcha qatlamni struktur-grammatik xususiyatiga ko'ra, sof va qorishiq so'zlarga ajratish mumkin.

a) sof arabcha so'zlar: *abná, abyát, akábir* va h.k.

b) qorishiq so'zlar: arabcha+forscha: *amnábád, xijálatzáda, maxdumzáda*; arabcha+forscha+turkiy: *nazarbázliý, naqšbandliq, ášiqpešaliq* va h.k.

Arabcha *jayb* so'zi "cho'ntak, kissa: yoqa, kiyimning yoqasi: yon, yaqinlik" ma'nolarini ifodalagan (ANATIL, I, 558). *Yaqa* leksemasi "yon, yaqinlik" semasi *jayb* so'zi orqali o'zaro ma'nodoshlik qatorini hosil qilgan. Eski o'zbek adabiy tilida bir nechta ma'no anglatgan, hozirgi kunga kelib ma'no torayishi yuz bergan *jayb* leksemasi Navoiy asarlari tilida quyidagi ma'nolarni anglatgan: 1) cho'ntak, kissa; 2) yoqa, kiyimning yoqasi; 3) yon, yaqinlik (ANATIL, I, 558). Biz o'rganayotgan asarlar matnida quyidagi semalarda voqelangan:

1) cho'ntak, kissa: *U káyáznī ačub yanīda qoyubdur* (HPM,15b7) va *yad tutubdur va čirmab, jaybīmya salibdur*;

2) yoqa, kiyimning yoqasi: *Alarniñ* (8a5) *nazmi har sinf še'rdin álamniñ zoliniñ qulaq* (8a6) *bilä bilägin samin durrlar bilä muzayyan va jayb bilän etägin otašin la'l bilä mamlu va mulavvan* (XM, 8a7) qilibturlar.

"Ko'ngilga ma'qul tushuvchi, ko'ngilga yoqadigan, yoqimli; dilrabo" (O'TIL, I, 616) ma'nosidagi forscha-tojikcha *dilpazir* o'zlashmasi *dil* otiga "kutib olmoq" ma'nosini anglatuvchi *paziruftan* fe'lining *pazir* hozirgi zamon asosini (TjRS, 295) qo'shib hosil qilingan (O'TEL, III, 88). Ushbu istiloh ma'noqiblarda "yoqimli, go'zal; ma'qul, ko'ngildagidek, xush keluvchi" ma'nolarida qo'llangan (ANATIL, I, 489): *Umid olkim* (XM, 68b5) *sayir-u kabir, šayx-u šábnīñ xátiralariya dilpazir va köjüllariya náguzir bolıyay*.

Olib borilgan statistik tahlilga ko'ra, eski o'zbek adabiy tilida sanskrit tiliga oid istilohlar juda kam ishlatilgan. Chunonchi, *čerig* istilohi dastlab, qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy toshbitiklari matnida keltirilgan¹³. "Harbiy yurish vaqtida oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin, lashkar; kuch-qudrat" (ANATIL, III, 463; O'TIL, IV, 475) ma'nosida qo'llanuvchi *čerik//čerig* istilohi XMda uch, HSHAda ikki joyda voqelangan: *Teñri* (11b10) *ináyati bilä xalás boldilar, čerikdin qaytib, šahrdä* (HSHA, 11b11) *sákin boldilar*.

Movaraunnahrning XIII asr 20-yillaridan e'tiboran, mo'g'ul bosqinchilari tomonidan istilo qilinishi oqibatida bir qator mo'g'ulcha o'zlashmalar turkiy tillar, chunonchi, o'zbek adabiy tili so'z boyligidan o'rin oldi. Ma'lumki, eski o'zbek tilida qo'llangan mo'g'ulcha so'zlar xususida o'zbek tilshunosligida qator

¹³ Дадабаев Х. Военная лексика в старозубекском языке. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 34-35.

maqolalar e'lon qilingan¹⁴. Manaqiblar matnida mo'g'ulcha o'zlashmalar faol qo'llanmagan bo'lmasa-da, ba'zan ko'zga tashlanadi. Quyida ularning tahlili amalga oshirildi:

Barlas etnonimi – Temuriy va Boburiylar davrida asosan O'rta Osiyoning janubiy hududlari, qisman Afg'oniston va Hindistonda yashagan, aksariyat chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan o'zbek qabilalaridan birini anglatgan (O'TIL, I, 169). Ushbu leksema 1) urug'- qabila; 2) kishi laqabi (ANAL, I, 278; NAL, 93) ma'nolarida ishlatilgan. XMda muayyan shaxsning shu urug'da ekanligini ta'kidlash uchun qo'llangan: *Seydam* (69b22) *Iráqiy degän yigit Muzaffar **barlasniñ** ábdán navkari, balkim ešik aqasi erdi, ýáyati nádánliýidín* (XM, 69b23) *alarya munkir ermış*. G.Dyoferning ta'kidlashicha, *barlas* leksemasi mo'g'ul tilida “sarkarda, lashkarboshi” ma'nosini anglatgan¹⁵.

XIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo va Eronda hukmdorning farmon va topshiriqlarini tegishli joylarga zudlik bilan yetkazuvchi oliy harbiy mansabdor (O'TIL, III, 632); “podshoh buyruqlarini tegishli joylarga olib boruvchi amaldor” (ANATIL, III, 155) *tavači* istilohi bilan ifodalangan. *Tavačining* xizmat vazifasiga bundan tashqari harbiy holat paytida turli taktik ishlarni amalga oshirish, tinchlik paytida ov ishlarini boshqarish va boshqa vazifalar ham yuklatilgan¹⁶. XMda *tavači* istilohi bir o'rinda qayd etiladi: *Ittifáqá šahr naváhisiya* (46b11) *etgän mahalda tavači nišán keltürüb, ordu* (46b12) *sari qaytardi*.

“O'rta Osiyo xonliklari davrida yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon” (O'TIL, V, 122); ma'nosini ifodalovchi turkcha-mo'g'ulcha *yasavul* so'ziga *-liq* affiksini qo'shish natijasida hosil qilingan *yasavulliq* istilohi “intizom saqlovchilik, qo'riqchilik” ma'nosida (ANATIL, III, 597) XMda aksini topgan: (XM, 72b4) *Pádšáhzádalar yasávulluq qilib, elni qorub, yol ačib, na's madfanya yetti*.

“Alisher Navoiy manaqib asarlari leksikasining funksional-semantik xususiyatlari” nomli ikkinchi bobda XM, HSHA va HPMda qo'llangan so'z boyligi mavzuviy guruhlariga ajratilib o'rganildi:

- 1) ijtimoiy-siyosiy istilohlar: *pádšáh//pádšá* (XM), *sultán* (HSHA);
- 2) harbiy istilohlar: *nayza, oq, tir* (XM);
- 3) astroponimlar: *aflák, Zuhra* (XM), *čarx* (HSHA), *falak* (HPM);
- 4) tilshunoslik istilohlari: *sarf* (XM), *mantiq* (HSHA), *nahv* (HPM);
- 5) adabiyotshunoslik istilohlari: *kulliyát*, (XM), *fard* (HSHA), *yazal* (HPM);
- 6) musiqiy istilohlar: *maqámát, muýanniy* (XM), *naýma* (HSHA), *sázanda* (HPM);
- 7) inson tana a'zolari bilan bog'liq leksema (samotizm)lar: *bürün*, (XM), *egin, lab* (HSHA), *ayaq, qaš* (HPM);
- 8) qavm-qarindoshlik istilohlari: *ata, oyul, qavm* (XM), *nasab* (HSHA);

¹⁴ Дадабоев Х. Эски ўзбек тили обидаларидаги мўғулча сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1986. № 6. – Б. 32-35; Кўрсатилган муаллиф: Эски ўзбек тилида қайд этилган мўғулча ўзлашмалар // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 1998. № 4. – Б. 126-135; Шу муаллиф: “Бобурнома”да қўлланган мўғулча ўзлашмалар этимологияси хусусида. Ахсикент халқаро илмий тадқиқот жамоат бирлашмасининг “Бобур ва Ахсикент” мавзусидаги II республика илмий амалий анжумани материаллари. – Наманган. 2022. – Б. 3-9.

¹⁵ Doerfer G. Türkische und mongolische Elemente im Neuperzischen. Bd. I. Wiesbaden, 1963. – S. 5.

¹⁶ Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 31.

- 9) sport istilohlari: *kušti, kuštigir, pahlaván* (HPM);
- 10) tibbiy istilohlar: *xasta* (XM), *harárat* (HSHA), *jaráhat* (HPM);
- 11) kitobat istilohlari: *daftar, bit=, bitil=, tasnif qil=* “yozmoq, bitmoq, ijod qilmoq” (XM), *kitáb* (HSHA), *safha//sahifa qalam, jild* (HPM);
- 12) teonimlar: *Tejri, sunnat* (XM), *Xudá* (HSHA);
- 13) etnonimlar: *qabila* (XM), *čiyatay* (HSHA) *sárt* (HPM);
- 14) fitonimlar: *arpa, báγ* (XM), *gul, lálá* (HSHA);
- 15) zoonimlar: *jarda* “sariq ot, to‘riq rangli ot” (HSHA), *it, qoy* (XM);
- 16) yosh va jins so‘zlari: *tufuliyat* “yoshlik chog‘i, bolalik”, *yigit, yaš* (XM), *qari* (HSHA), *yašliy* (HPM);
- 17) mavhum otlar: *hayá, lutf* (HSHA), *falakát, huzn* “g‘am, qayg‘u, xafalik, g‘amginlik” (HPM);
- 18) o‘rin-joy semasini izohlovchi so‘zlar: *xilvatxána* (XM), *šahr, joy* (HSHA), *sartakiya* “bosh takya; pahlavonlar yotoqxonasi”(HPM);
- 19) ilm-fanga oid istilohlar: *fan, funun, ilm* (XM);
- 20) ta‘lim-tarbiya oid so‘zlar: *šágird* (HSHA), *ustáz* (HPM);
- 21) dunyo tomonlarini ifodalovchi istilohlar: *jánub, mayrib,* (XM), *šimál* (HSHA);
- 22) qimmatbaho tosh va madan nomi: *dur, gavhar* (XM), *la‘l, javáhir* (HSHA);
- 23) tabiat hodisalari: *amtár, barq, yel* (XM), *nasim* (HSHA);
- 24) yil, fasl, vaqt, hafta kunlari: *bahár, panjšanba* (XM), *asr, fursat* (HPM);
- 25) moliyaviy istilohlar: *maásh, sarf, xarj* (HPM);
- 26) kasb-hunar leksikasi: *sáqiy, báγbán* (HPM);
- 27) maishiy leksika: *börk* (XM), *dastár* (HSHA), *yayliq* (HSHA);
- 28) oziq-ovqat nomlari: *áš, at‘ima, buyra* (XM), *halvayát, arpa,* (HSHA), *bal, et* (HPM) ;
- 29) ichkilik va ichimlik nomlari: *báda* (XM), *šarbat, xamr, sabuhiy* “tong mahalida ichiladigan may” (HSHA), *ašriba* (HPM);
- 30) antroponimlar: *Zuláyxá* (XM), *Abusa‘id mirzá* (HSHA), *Abulqásim Bábur, Baysunyor mirzá* (HPM);
- 31) toponimlar: *Hirát* (XM), *Bustán* (HSHA), *Xurásán* (HPM).

Ijtimoiy-siyosiy leksika lug‘aviy boylikning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo‘lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma‘naviy-ma‘rifiy omillar asosida shakllanuvchi va o‘zgaruvchan qatlamidir.

Saltanat istilohi eski o‘zbek adabiy tilida 1) hukmronlik, sultonlik; 2) dabdaba, tantana (ANATIL, III, 33-34), hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa “xon, amir, podsho hukmdorligi va shunday hukmdor qo‘l ostidagi davlat; imperiya” (O‘TIL, III, 432) ma‘nolarida ishlatilmoqda. Quyida misolda ushbu istiloh “hukmronlik, sultonlik” mazmunida qo‘llangan: *Ul* (70b2) *pádšáh zamánikim ötti va saltanat taxti sultán-i sáhibqirán Abulyázi Sultán Husayn Bahádirxángä muqarrar* (XM, 70b3) *boldi*.

Qadimgi turkiy tilda *beg* istilohi “hukmdor, hokim, dohiy, yo‘lboshchi, bek, askar boshligi va viloyat hokimi, xo‘jayin” (DTS, 91), ANATILda “bek, amaldor”

(I, 261) tarzida izohlangan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *beg/bek* leksemasining ma’no kengayishi yuz berib, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) turkiy xalqlarning ba’zilarida xonliklar davrida davlat arboblarga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs; 2) erkaklar ismining tarkibiy qismi; 3) (I shaxs egalik shaklida) o‘z begi yoki xo‘jayniga murojaatda yoki ular haqida gapirganda ishlatiladigan so‘z (O‘TIL, I, 213). Manoiqlar so‘z boyligida *beg/bek* istilohi saltanatda xizmat qiluvchi yuqori mansabdor harbiylar va arkonid davlatga nisbatan qo‘llangan: *Va čriyatáy ulusiniń áliy miqdár beklári olča* (HSHA, 8b2), *yaşya va yolu alardin uluy erdilär*.

“Yiqitish, g‘olib chiqish uchun ikki kishi o‘rtasidagi, ma’lum qoidaga asoslangan olishuv, o‘zaro bellashuv” (O‘TIL, II, 433), “yakkama-yakka olishuv, kurash” (ANATIL, II, 143) sememasi eski o‘zbek adabiy tilida forscha-tojikcha *kušti* istilohi bilan ifodalangan: *Bávujudi olki, öz fanidäki, kušti bolyaykim*, (HPM, 2a3) *šuhrati ul ism bilädür*. Ushbu o‘zlashma asosida voqelangan *kuštigir*, *kuštidánliý* istilohlarining faqat HPMda qo‘llangani kuzatildi.

“Barvasta va zabardast; jismoniy baquvvat, bahodir” sememasidagi forscha-tojikcha *pahlaván* istilohi Navoiy asarlarida “bahodir, botir” ma’nosida ishlatilgan (ANATIL, II, 569). Bu hunarda yuksak maqomga erishgan, elda tanilgan kishilarning ismiga *Pahlaván* unvoni qo‘shilib, ulug‘langan. Sh.Xayitovning ta’kidlashicha, mazkur sharqona kurash ustalarining ota-onasi tomonidan qo‘yilgan ismi tilga olinmay, *Pahlaván* yoki *Pálván* deb atash rasmi ham bor xalqimizda. Navoiy manoiqibda ana shu xalq taomiliga keng amal qilgan. Butun asar davomida *Muhammad* nomini tushirib qoldirib, qirq yillik do‘sti va murabbiysini “Pahlaván” deb atagan¹⁷: *Aksar nazm ahli har nav’ še’r aytsalar erdi* (HPM, 4a7) *Pahlaván nazariya yetkürürlär erdi*.

Eski o‘zbek tilida *maraz* leksemasi 1) kasallik, bemorlik; 2) muhtalolik; 3) tashvishlik (ANATIL, II, 232) ma’nolarini ifodalagan. Ushbu istiloh HPMda “kasaldan, darddan forig‘ bo‘lmoq” ma’nosida qo‘llangan: *Tariq-i muhabbat va yamxorliq bajá keltürür erdilär* (HPM 11b11) - *añačaki maraz daf’ boldi*.

“Suyak bo‘g‘imlarining yallig‘lanishi, og‘rishidan iborat kasallik; artrit, revmatizm” ma’nosidagi *mafásil* istilohi manoiqiblarda “bo‘g‘imlar” ma’nosini qo‘llangan (ANATIL, II, 232): *Mašhad sári tartib eltti va anda yetgändin* (HPM, 11b7) *soňra mafásil marazı tári bolib, bir gūšada yiqıldim*.

Dastár o‘zlashmasi “salla” ma’nosini ishlatilgan (ANATIL, I, 467; O‘TIL, I, 573). *Dastár* matodan o‘ralgan bosh kiyim. *Salla* va *dastár* so‘zlashuv tilida *čalma/čálma* deb ham yuritiladi. *Čalma* leksemasi *čal*= fe’lining o‘zagiga *-ma* affiksini qo‘shib yasagan¹⁸. L.Budagov ham lug‘atida *čalma* so‘zi “cholishtirib o‘ramoq” ma’nosini ifodalovchi *čalmaq* fe’lining harakat nomi asosida yuzaga kelganligini yozadi (II, 403). V. Radlov lug‘atida *čalma* so‘zi usmonli turk, qozoq, qirim, oltoy va teleut tillarida “boshga chalib o‘raladigan mato” tarzida izohlangan (III, 1892). HSHAda *dastár* so‘zi *salla* ma’nosida qo‘llangan: *Ani čiqarur kün arıy*

¹⁷ Хайитов Ш. Пахлавон сиймосининг бадий талқини // БухДУ ахбороти. Бухоро, 2017. № 1. – Б. 92-93.

¹⁸ Qarang: Asomididina M. Kўrsatilgan asar. – Б. 36.

ton (13a9) *kiyib, arıy dastár ċirmab, mátamiylaryakim, anduh-u iztiráb yüzidin* (13a10) *beixtiyár yiylar erdilär.*

Qadimgi turkiy tilda *adaq*, eski turkiy tilda *azaq* shaklida bo‘lgan (DTS,27). Eski o‘zbek adabiy tilida *ayaq//ayay* 1) oyoq, qadam; 2) oxir, poyon; nihoyat, so‘nggi (ANATIL, II, 505) ma’nosida qo‘llangan. HPMda ushbu somatizm “oyoq, qadam”, XMda “oxir, poyon; nihoyat, so‘nggi” semalarida qo‘llangan: *Alar bašiya yetgünčä Pahlaván xud özgä alam azimatiya* (HPM, 8a1) *ayaq ürgän ekändür; ...bir risálakim, ikki juzvya yaqin, balki* (13a4) *artuyraq bolay, bir tavajjuh bilä baštän ayaqqača* (XM, 13a5) *oqumaq xali az yarabat emäs.*

Navoiy asarlari tilida “ohang, kuy, navo” (ANATIL, II, 449) ma’nosini ifodalagan *nayma* istilohi hozirgi o‘zbek adabiy tilida “kuy, ohang, navo; musiqa tovushi” ma’nolarida ishlatishda davom etmoqda (O‘TIL, III, 30). *Yana biri: köñülniñ yumşaqliykim* (HSHA,6a11), *dardmandána sözdin va nazmdin va naymadin mutaassir bolaylar.*

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *yulduz* leksemasi bilan sinonimlik uyani shakllantirgan arabcha *kavkab* istilohi (O‘TIL, II, 290) eski o‘zbek adabiy tilida “yulduz, sayyora” ma’nolarida ishlatilgan (ANATIL, II, 87). Ushbu istiloh ayni ma’noda XM matnida ham aks etgan: *Alar “Haft (60b7) avray”din ham har lafzi yetti iqlimya sarmaya* (60b8) *va har harfi yetti kavkabya pirayadur.* Sof turkiy *yulduz* astroponimi anglatgan tushunchani ifodalash vazifasi XI asrdan e’tiboran arabcha *aqrán* o‘zlashmasi zimmasiga ham yuklatilgan (DTS, 49). XIV asrda ushbu o‘zlashma “Qisasi Rabg‘uziy” so‘z boyligidan ham olgan (66v8). Ma’no-mazmun jihatdan yuqoridagi astroponimlarga yaqin turuvchi arabcha *kavakib* (*kavkab* o‘zlashmasining ko‘plik shakli) dastlab “Qutadg‘u bilig”da namoyon bo‘lgan va “yulduzlar, osmon yoritqichlari” ma’nosida “Guliston bit-turkiy” (27a7) hamda “Xusrav va Shirin” matnidan o‘rin olgan¹⁹.

“Pishirilgan issiq ovqat” ma’nosidagi *aš* leksemasi (O‘TIL, III, 168) ANATILda “ovqat, taom” (II, 540) ma’nosida voqelangan. Ayni shu ma’nodagi *aš* leksemasi manoqiblarda quyidagicha qo‘llangan: *Ol (72b21) jumladin huruf raqimi bu marsiya bilä ta’rixni aytib, yil aši tartarda Sultán-i Sáhıbqırán áliy majlislarida* (XM, 72b22) *ötkärđi.* Jumlada qayd etilgan *aš* Jomiy hazratlari vafoti munosabati bilan elga tortilgan osh, ya’ni palovni anglatmoqda.

“Odamni ko‘tarib yurish uchun yasalgan zambil; kajava” (ANATIL, II, 311) ma’nosidagi *mihaffa* leksemasi XMda “tobut” ma’nosini kashf etgan: *Yana mutahhar (72b4) ravzalarıya alıb qayttılar va xalq yavyásıdın mihaffanı keltürmək duşvár erđi.* XM matnida ushbu leksemasining ma’nodoshi *maháfa* ham o‘z aksini topgan: *Alarniñ mahfuf maháfasın eginlariya kótarıb, Musalláya elttılär* (72b2).

“Bug‘doyni oqlab pishiriladigan va yig‘ında tortiladigan ovqat” (NAL, 139) ma’nosidagi *buyra* leksemasi manoqiblarda ham ayni shu ma’noda qo‘llangan: *Bir kün Gavharşádbegim madrasası tálib-i ilmlári bir báyda suhbat tutub, buyra pişiradur* (XM, 70a21) *ermişlär.*

¹⁹ Дадабоев Х., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. (XIV аср иккинчи ярми – XX аср боши). – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 51.

“Turli taomlar pishirish, tayyorlash yoki suv isitish uchun cho‘yandan quyib tayyorlangan ro‘zg‘or buyumi” (O‘TIL, V, 323) sememasini anglatuvchi *qazan* leksemasi manoniyatlarda ham “qozon” (ANATIL, IV, 21) ma’nosida qo‘llangan: *Taş qazandin* (HSHA, 14a5) *ğayri naf’ heč nimä mutasavvar ermäs*.

“May, ichkilik, sharob” ma’nosidagi *báda* leksemasi (O‘TIL, I, 295) eski o‘zbek adabiy tilida 1) may, sharob, mast qiluvchi ichimlik; 2) bahra; bahramandlik (ANATIL, I, 303) ma’nolarida ishlatilgan. Ushbu so‘z XMda “musiqa, kuy, ohang” ma’nosida qo‘llangan:

Ču istäb tarab (67b6) *tab’-i ázadási*,
Quyub nazm jámiya sáz bádasi.

“Alisher Navoiyning **manoqib asarlari leksikadagi semantik-stilistik jarayonlar**” deb nomlangan III bobda manoniyatlar leksikasida sodir bo‘lgan sinonimiya, polisemiya, antonimiya, omonimiya jarayonlari, shuningdek, Navoiyning o‘xshatish, sifatlash, takror va h.k.dan mohirona istifoda etganligi tahlilga tortilgan. Adib ustozlari hamda zamondoshlari Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasherlarning suvrati va siyratini o‘quvchiga to‘laqonli yetkazib berish, o‘zining bu shaxslarga bo‘lgan hurmat-e’tibori, samimiy munosabatini ifodalashda aksariyat hollarda turli bo‘yoqdor so‘zlar, o‘xshatishlar, takrorlar va juft so‘zlardan mohirona iste’foda etgan. Oqibatda, nafaqat, Navoiyning so‘z qo‘llash mahorati, balki eski o‘zbek adabiy tili so‘z boyligining naqadar ko‘p qirraligini o‘quvchi to‘laligicha tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega *bašara* leksemasi “kishi boshining old qismi; bet, yuz, chehra” (O‘TIL, I, 183) ma’nosini anglatadi va *yüz, rūy, diydár, aft* so‘zlari bilan sinonimik qatorni yuzaga chiqaradi. Ushbu arabcha so‘z *bašar (un)* shakliga ega (ARS, 72); o‘zbek tilida so‘z oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: *bašarat*→*bashara*. Bu so‘z asli “po‘stini (terisini) shildi” ma’nosini anglatuvchi *bašara* fe’lidan (ARS, 143) yasalgan bo‘lib, “teri, po‘st” ma’nosini bildiradi; o‘zbek tilida bu o‘zlashma “kishining yuz ko‘rinishi, qiyofa” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, I, 87; O‘TEL, II, 69-70). *Bašara* so‘zining XMda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagidek salbiy ma’noni ifodalagani shubhali. Zero, Abdurahmon Jomiy uni Alisher Navoiyga nisbatan qo‘llagan. Bu holat o‘zlashmaning XV-XVI asrlarda neytral ma’no kasb etganidan dalolat beradi: *Maxdum tašrif keltürdilär, faqir munbasit* (60a2) *bolub, istiqbál qilib, alar taskin tapib*, (60a3) *dedilärkim: “Bašaranda inbisáte zähir bolur*, (XM, 60a4) *ne háliliq bar?”* “Xamsat ul-mutahhayirin”da *bašara-yüz-diydár* hamda *rū/rūy* so‘zlari bilan birga sinonimik qatorni voqelantirgan: (39b9) *Ul vaqtdäkim, šahzáda-i bihamta Kičik mirzá* (39b10) *taba saráhu zalli muzilli xatákáš, devána-i siyah* (XM, 39b11) *rūy siyahpošqa yuluqmaydur erdi; Alarniñ ..yüzlärin qibla sari qildilar. Alarniñ vidá diydárlariya mušarrafi* (XM,70b10) *bolub, Qur’án oquyalı bašladı*.

